

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

UO'K(UDC, УДК): 82.091

G'ARB VA SHARQ ROMANTIZMINING QIYOSIY-TIPOLOGIK
TAHLILI VA POETIK QONUNIYATLARI¹⁰

Umarova Maxliyo Yunusovna

Filologiya fanlari doktori, professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

email: umarovamakliyo76@gmail.com

ORCID ID:0000-0002-1024-1452

ANNOTATSIYA

KALIT SO'ZLAR

Ushbu maqolada G'arb va Sharq romantik adabiyotida inson konsepsiyasi, sayohatnoma janri hamda erksevarlikni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-badiiy omillar qiyosiy tahlilga tortilgan. Tadqiqotda J.Bayron, H.Heyne hamda Muqimiy va Cho'lpon asarlaridagi sayohat motivlarining o'ziga xos poetik talqini yoritilgan. Sayohatnoma janri orqali adiblar lirik qahramonning ichki dunyosini, uning cheksiz erkinlikka intilishini va ijtimoiy hayotni yaxlit anglash masalalarini badiiy tadqiq etganlar.

Romantik qahramonning isyonkor tabiati va psixologik holati bevosita olam va odam munosabatlari, makon va zamon uyg'unligi doirasida namoyon bo'ladi. Maqolada erksevarlik g'oyasining ifodalanishi ijtimoiy tushunmovchilik, surgunlik va milliy ozodlikka intilish kabi obyektiv sharoitlar tasviriga asoslanishi ko'rsatib berilgan. Mazkur omillar romantik asarning o'ziga xos fojiali manzarasini shakllantirib, voqealar bayoniga dramatism va haqqoniylik bag'ishlaydi. Natijada adiblar ijodida lirik pafosning kuchayishi hamda badiiy makonning lirik qahramon dunyoqarashini ochishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Maqola G'arb va Sharq romantizmi o'rtasidagi tipologik yaqinliklar va poetik qonuniyatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

G'arb va Sharq romantizmi, sayohatnoma janri, erksevarlik, inson konsepsiyasi, lirik qahramon, badiiy makon, Bayron, Heyne, Muqimiy, Cho'lpon.

Received: January 30, 2026**Accepted:** February 10, 2026**Available online:** May 10, 2026

¹⁰ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Umarova M. G'arb va Sharq romantizmining qiyosiy-tipologik tahlili va poetik qonuniyatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 103-114.

**ROMANTICISM OF THE WEST AND THE EAST COMPARATIVE-
TYPOLOGICAL ANALYSIS AND FEATURES OF POETICS****Umarova Makhliyo Yunusovna**Doctor of Philological Sciences, Professor
Uzbekistan State University of World Languages
Tashkent, Uzbekistanemail: umarovamakliyo76@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-1024-1452

ABSTRACT

This article presents a comparative analysis of the concept of the individual, the travelogue genre (sayokhatnoma), and the socio-artistic factors that give rise to the spirit of liberty in Western and Eastern Romanticism. The research highlights the unique poetic interpretation of travel motifs in the works of J. Byron, H. Heine, as well as Muqimi and Chulpon. Through the travelogue genre, the authors artistically explore the inner world of the lyrical hero, their longing for boundless freedom, and the challenges of a holistic perception of social life.

The rebellious nature and psychological state of the Romantic hero manifest directly within the context of the relationship between man and the world, and the harmony of space and time. The article demonstrates that the expression of freedom-loving ideas is based on the depiction of objective conditions, such as social misunderstanding, exile, and the pursuit of national liberation. These factors form a specific tragic landscape within the Romantic work, imbuing the narrative with dramatism and authenticity. Consequently, the study substantiates the intensification of lyrical pathos in the writers' creative work and the role of artistic space in revealing the lyrical hero's worldview. The article serves to identify typological similarities and poetic patterns between Western and Eastern Romanticism.

KEYWORDS

Western and Eastern Romanticism, travelogue genre, freedom-loving, concept of the individual, lyrical hero, artistic space, Byron, Heine, Muqimi, Cho'lpon.

ЗАПАДНЫЙ И ВОСТОЧНЫЙ РОМАНТИЗМ: СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ОСОБЕННОСТИ ПОЭТИКИ

Умарова Махлиё Юнусовна

Доктор филологических наук, профессор

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

email: umarovamakliyo76@gmail.com

ORCID ID:0000-0002-1024-1452

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В данной статье проводится сравнительный анализ концепции человека, жанра путевых заметок (саёхатнома) и социально-художественных факторов, порождающих дух свободолюбия в западном и восточном романтизме. В исследовании освещается своеобразие поэтической интерпретации мотивов странствий в произведениях Дж. Байрона, Г. Гейне, а также Мукими и Чулпана. Установлено, что через жанр путевых заметок авторы художественно исследуют внутренний мир лирического героя, его стремление к безграничной свободе и вопросы целостного восприятия социальной жизни.</p> <p>Мятежная природа и психологическое состояние романтического героя проявляются непосредственно в контексте взаимоотношений человека и мира, гармонии пространства и времени. В статье показано, что выражение идей свободолюбия основывается на изображении объективных условий, таких как социальное непонимание, изгнание и стремление к национальному освобождению. Данные факторы формируют специфическую трагическую картину романтического произведения, придавая повествованию драматизм и достоверность. В результате обосновывается усиление лирического пафоса в творчестве писателей и роль художественного пространства в раскрытии мировоззрения лирического героя. Статья служит выявлению типологических сходств и поэтических закономерностей между западным и восточным романтизмом.</p>	<p>Западный и восточный романтизм, жанр путевых заметок, свободолюбие, концепция человека, лирический герой, художественное пространство, Байрон, Гейне, Мукими, Чулпан.</p>

KIRISH

Jahon adabiy-tanqidiy tafakkurida romantizm XVIII asr soʻnggi choragi va XIX asrning birinchi yarmida Gʻarb madaniyatida yuz bergan fundamental estetik inqilob sifatida baholanadi. *Romanticism, an amorphous movement that began in Germany and England at the turn of the 19th century, and somewhat later in France, Italy, and the United States, found spokesmen as diverse as Goethe and August and Friedrich von Schlegel in Germany, William Wordsworth and Samuel Taylor Coleridge in England, Madame de Staël and Victor Hugo in France, Alessandro Manzoni in Italy, and Ralph Waldo Emerson and Edgar Allan Poe in the United States. Romantics tended to regard the writing of poetry as a transcendently important activity, closely related to the creative perception of meaning in the world* (Kuiper.K, 2012, 217). (XIX asr boʻsagʻasida Germaniya va Angliyada, biroz keyinroq esa Fransiya, Italiya va AQShda yuzaga kelgan romantizm — shaklan nomuayyan (amorf) oqim hisoblanib, uning gʻoyaviy targʻibotchilari sifatida Germaniyada Gyote hamda Avgust va Fridrix Shlegellar, Angliyada Uilyam Vordsvort va Semyuel Teylor Kolrij, Fransiya Madam de Stal va Viktor Gyugo, Italiyada Alessandro Manzoni, AQShda esa Ralf Uoldo Emerson va Edgar Allan Po kabi turlicha qarashlarga ega ijodkorlar maydonga chiqdi. Romantiklar sheʼriyat yaratish jarayonini dunyoning mohiyatini ijodiy anglash bilan uzviy bogʻliq boʻlgan, oʻta yuksak (transsendental) ahamiyatga molik faoliyat deb hisoblashgan). Adabiyotshunos Dilmurod Quronov taʼkidlaganidek, “romantizm” atamasining etimologik ildizlari ispancha “romanse” soʻziga borib taqaladi va dastlab kitoblardagi gʻayritabiiy, fantastik hodisalarni ifodalagan. Bu esa romantizmning nafaqat tarixiy jarayon, balki inson tasavvurining cheksiz imkoniyatlarini namoyon etuvchi estetik hodisa ekanligidan dalolat beradi. (Quronov D., 2008, 37)

Romantizm shunchaki adabiy hodisa emas, balki insoniyatning borliqni anglashdagi tub estetik burilishidir. Turli mamlakat ijodkorlarini birlashtirgan ushbu oqim sheʼriyatni dunyo mohiyatini kashf etuvchi transsendental vosita darajasiga koʻtardi va zamonaviy adabiy tafakkur tamoyillariga asos soldi.

The Romantic movement in European literature is usually associated with thosesocial and philosophical trends that prepared the way for the French Revolution,

which began in 1789. The somewhat subjective, anti-rational, emotional currents of romanticism transformed intellectual life in the revolutionary and Napoleonic periods and remained potent for a great part of the 19th century (Kuiper K., 2012, 217). (Yevropa adabiyotidagi romantizm oqimi, odatda, 1789-yilda boshlangan Fransuz inqilobiga zamin yaratgan ijtimoiy va falsafiy jarayonlar bilan uzviy bogʻliq holda talqin etiladi. Romantizmga xos boʻlgan muayyan darajadagi

subyektivizm, antirasionalizm va hissiyot ustuvorligi kabi tamoyillar inqilob hamda Napoleon davri intellektual muhitini tubdan transformatsiya qildi va XIX asrning sezilarli qismida o'zining mafkuraviy ta'sir kuchini saqlab qoldi).

Ushbu davr mutafakkirlarining qarashlari romantizmning konseptual mohiyatini belgilab beradi. Xususan, Fridrix Shlegel romantik she'riyatning sinkretik tabiatiga urg'u berib, uni "*doimiy harakatdagi universal she'riyat*" sifatida ta'riflaydi hamda san'atning barcha turlarini falsafa va real hayotiy voqelik bilan integratsiya qilishni asosiy maqsad deb biladi (Шлегель Ф., 1983, 294). Fridrix Shlegelning bu qarashi romantizmni shunchaki she'r yozish usuli emas, balki cheksiz va tirik jarayon sifatida ko'rsatadi. Uning "*universal she'riyat*" haqidagi gapi adabiyotning naqadar qudratli ekaniga ishoradir. Ingliz romantizmi nazariyotchisi Semyuel Teylor Kolrij esa inson ongidagi "*tasavvur*" (imagination) quvvatini borliqning in'ikosi va ilohiy qudratning tirik bo'g'ini sifatida baholab, ijodiy jarayonning transsendental tabiatini ko'rsatib beradi (КОЛЬРИДЖ С.Т., 1987). Kolrij talqinida ijodkor shunchaki kuzatuvchi emas, balki borliqni qayta yaratuvchi kuchdir. Uning tasavvur haqidagi konsepsiyasi romantizmning estetik asosi bo'lib, san'atni oddiy taqliddan (mimesis) ilohiy va ruhiy kashfiyot darajasiga ko'taradi. Bu esa ijodkorning shaxsiy "men"ini koinotning markaziga qo'yadi.

G'arb romantizmidan farqli o'laroq, Sharq adabiy muhitida romantik tamoyillar nafaqat individualizm, balki milliy ozodlik va ijtimoiy renessans g'oyalari bilan sinkretik tarzda namoyon bo'ldi. Sharq romantik qahramoni bu jamiyatdan ajralgan tanho isyonkor emas, balki xalqning dardini o'z zimmasiga olgan, millatni g'aflat uyqusidan uyg'otishga chog'langan ma'rifatparvar shaxsdir.

Sharqona romantizmning mohiyati haqida gapirganda, taniqli olim Najmiddin Komilov shunday yozadi: "Tasavvuf o'zi buyuk bir romantik olamdir" (КОМИЛОВ Н., 2009, 140). Bu o'rinda, o'zbek romantizmining yirik vakili Abdulhamid Cho'lpon ijodi misolida "erk" tushunchasining naqadar romantik va ayni paytda siyosiy kategoriya ekanini ko'rish mumkin. Zero, Cho'lpon she'riyatidagi tabiat talqini va milliy hurlikka intilish G'arb romantiklaridagi "erkin shaxs" g'oyasining sharqona talqinidir.

Jahon adabiyotshunosi Viktor Jirmunskiy Sharq va G'arb romantizmining tipologik yaqinligi haqida to'xtalib, shunday ta'kidlaydi: "*Sharq romantizmi ijtimoiy taraqqiyotning shunday bosqichida yuzaga keldiki, unda milliy o'zlikni anglash ehtiyoji adabiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi*" (ЖИРМУНСКИЙ В.М., 1979, 78). Shunday qilib, agar G'arb romantizmi ratsionalizmga isyon bo'lsa, Sharq romantizmi mustamlakachilik va turg'unlikka qarshi ma'naviy uyg'onishdir.

ASOSIY QISM

Romantizm estetikasida borliqni anglashning o'ziga xos usuli sifatida namoyon bo'ladigan makon va zamon munosabatlari, xususan, "sayohat" motivi ijodkorning ichki dunyosi va ijtimoiy voqelik o'rtasidagi dialektik aloqani yoritishda fundamental ahamiyat kasb etadi. Ushbu estetik paradigma doirasida olmon adabiyoti vakili Heynrix Heyne va o'zbek mumtoz adabiyotining o'ziga xos siymosi Muqimiy ijodidagi sayohatnoma (travelogue) janri shunchaki geografik tavsif emas, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy manzarasini badiiy tadqiq etishning strategik vositasi bo'lib xizmat qilgan. Xususan, H.Heynening "Sayohat manzaralari" (Reisebilder) asari romantik ironiya uslubining yuksak na'munasi sifatida, tabiat va inson munosabatlarini an'anaviy qoliplardan xalos etishga qaratilgan. Olim A.Dmitriyev ta'kidlaganidek: "*Heyne sayohatnomasi — bu shaxsiy subyektiv kechinmalarining ijtimoiy-siyosiy tahlil bilan sintezlashgan yangi janriy shaklidir*" (Дмитриев А.С., 1982., 42). Heyne an'anaviy romantiklar kabi tabiatni shunchaki go'zallik manbai sifatida tasvirlamaydi. U go'zal tabiat manzarasi fonida kutilmaganda kundalik hayotning "sovuq" haqiqatlarini yoki siyosiy pichinglarni kiritadi. "Kolbasa va universiteti bilan mashhur bo'lgan Göttingen shahri Gannover qiroliga tegishli. Unda to'qqiz yuz to'qson to'qqizta uy, turli cherkovlar, bitta tug'ruqxona, bitta rasadxona, bitta qamoqxona, bitta kutubxona va ajoyib pivo tortiladigan bitta vino ombori mavjud. U yerdan oqib o'tadigan soy "*Leina*" deb ataladi va yozda cho'milish uchun ishlatiladi; suv juda sovuq va ba'zi joylarda u shunchalik kengki, undan sakrash uchun yaxshi yugurish kerak edi" (Генрих Г., 1957). Heyne bu yerda Gyottingen shahrini o'ziga xos piching, yumor va pafosdan xoli tarzda tasvirlagan. Shaharni dunyoga mashhur qilgan narsalar (universitet va olimlar) bilan bir qatorda "kolbasa"ni ham bir qatorga qo'yishi bu muallifning oliyjanoblik va kundalik hayot o'rtasidagi chegarani masxara qilishi hisoblanadi.

Muallif daryoni shunchalik "keng" deb ta'riflaydiki, uni hatto yaxshi yugurib kelib sakrab o'tsa bo'ladi. Bu yerda ziddiyat yashiringan: odatda "keng" daryolar kemalar suzishi yoki haybatli ko'priklari bilan maqталadi, Heyne esa uni shunchaki bir ariq darajasiga tushirib qo'yadi. Bu orqali u nafaqat tabiatni, balki shu daryo bo'yida joylashgan, o'zini o'ta muhim va "buyuk" deb hisoblaydigan Gyottingen akademik muhitini ham masxara qiladi. Tug'ruqxonadan qamoqxonagacha bo'lgan zanjir inson umrining barcha bosqichlari davlat tomonidan qat'iy nazoratga olinganini va rejalashtirilganini ko'rsatadi. Muallif nazarida, bu shaharda inson erkin shaxs emas, balki tug'ilishi bilan "tug'ruqxona" hisobiga kiradigan, xato qilsa "qamoqxona"ga joylanadigan, o'rtada esa "universitet" va "kutubxona" kabi sovuq devorlar orasida hayoti o'tadigan bir statistik raqam xolos. Bu tasvirlar orqali Heyne Gyottingenni tirik, jo'shqin shahar emas, balki ruhini yo'qotgan, zerikarli va qotib qolgan bir tizim sifatida tanqid qiladi. Bu o'quvchini hissiyotlar olamidanda hushyor

torttirib, reallikka qaytaradi. Muallif o‘zini voqealar markaziga qo‘yadi. U shunchaki kuzatuvchi emas, balki hissiyotli ishtirokchi. Uning xursandchiligi, g‘azabi yoki nafrati kitobning asosiy “dvigateli” hisoblanadi.

Heyne ushbu asari bilan an’anaviy romantizmning hayotdan uzilgan “pushti orzulari”ni parchalab, unga ijtimoiy-siyosiy ruh bag‘ishlaydi. Agar klassik romantiklar tabiat bag‘rida tasalli izlagan bo‘lsa, Heyne romantik ironiya orqali o‘quvchini bu xayollar olamidani yulib oladi va uni jamiyatning sovuq realligi bilan yuzlashtiradi. Bu uslub ijodkorning shaxsiy kechinmalari (subyektivlik) va ijtimoiy tanqidning sintezidan iborat bo‘lib, romantizmni shunchaki hissiyotlar emas, balki erkinlik uchun kurashuvchi qudratli qurolga aylantiradi.

Bunday uslubiy o‘tishni biz o‘zbek adabiyotida Muqimiy ijodida ham yaqqol ko‘ramiz. Agar mumtoz romantik an’anada tabiat va shahar tavsifi faqat ma’shuqa vasli yoki ilohiy ishq asosi bo‘lgan bo‘lsa, Muqimiy o‘zining “Sayohatnoma” asarlarida Heyne kabi romantik pafosni ijtimoiy hajv bilan birlashtiradi. U yo‘l manzaralarini tasvirlash asnosida kutilmaganda jamiyatdagi illatlarni, amaldorlarning kirdikorlarini va xalqning real ahvolini ochiq ko‘rsatadi. Muqimiyning “sayohatnomalari” ham xuddi Heyneniki kabi, an’anaviy go‘zallik qoliplarini buzib, adabiyotga hayotning “achchiq” haqiqatlarini, ijtimoiy tanqid va subyektiv dardni olib kiradi. Xususan, “Qo‘qondan Shohimardonga” deb nomlangan ushbu parcha shoirning ichki kechinmalari bilan boshlanadi:

Faryodkim, garduni dun
Aylar yurak bag‘rimni xun,
Ko‘rdiki, bir ahli funun –
Charx anga kajraftor ekan.
Qolmay shaharda toqatim,
Qishloq chiqardim odatim,
Xohi yayov, bo‘lsun otim,

Goh sayr ham darkor ekan (Muqimiy M.A., 1959, 84).

Shoir bu yerda shunchaki sayohat haqida gapirmayapti. “Ahli funun” (bilimli, hunarli kishi) tushunchasi orqali o‘z davrining fozil kishilari jamiyatda munosib qadrlanmaganiga ishora qilmoqda. Taqdirning “kajraftorligi” (teskari harakati) shoirni ma’naviy qiynoqqa solganini ko‘ramiz. “Shaharda toqatim qolmay” jumlasini shahardagi g‘avg‘olardan, ijtimoiy tengsizlikdan charchagan ko‘ngilning faryodidir. “Qishloq chiqarish” va sayr qilish shoir uchun nafaqat jismoniy harakat, balki ruhiy xotirjamlikka erishish, tabiat bilan tillashish vositasidir. Muqimiy bu bandda o‘zining shaxsiy dardi orqali butun bir davr ziyolilarining ayanchli ahvolini ochib bergan. Sayohat uning uchun dunyo g‘amlaridan bir muddat uzoqlashish va o‘zligini anglash yo‘lidir.

Har ikki ijodkor poetikasida “yo‘l” motivi inson ruhiyatining statik holatdan dinamik erkinlik sari harakati, o‘zlikni qidirish jarayoni sifatida konseptuallashadi. Agar Heyne ijodida sayohat evristik tahlilga asoslangan bo‘lsa, Muqimiy asarlarida lirik qahramonning qishloqma-qishloq kezishi orqali xalqning og‘ir ijtimoiy ahvoli felyetonistik aniqlik va romantik pafos uyg‘unligida ochib beriladi. Adabiyotshunos H.Yoqubov qayd etganidek: *“Muqimiy sayohatnomalari shunchaki geografik yo‘nalish emas, balki ijodkorning xalq dardi bilan yashagan ma‘naviy yo‘lidir”* (Yoqubov H., 1953, 188).

Heyne sayohatni “kashfiyot” (evristika) deb bilsa, Muqimiy uni “ijtimoiy fosh etish” (felyeton) va ruhiy poklanish vositasi sifatida talqin etadi. Har ikki ijodkorda ham yo‘l bu jamiyat siquvidan qutulish va erkinlikka chiqish ramzidir.

Sayohat janridagi ijtimoiy mushohadalar romantik qahramonning dunyo bilan to‘qnashuvidagi dastlabki bosqich bo‘lsa, ushbu jarayonning mantiqiy davomi sifatida individual isyon va erksevarlik konsepsiyasi yuzaga chiqadi. Sayohatnoma janrida makonni o‘zgartirish orqali erkinlik qidirgan qahramon, keyingi bosqichda mavjud ijtimoiy-siyosiy tartibotlarga qarshi murosasiz kurashuvchi erksevar shaxs darajasiga ko‘tariladi. Bu borada jahon adabiyotida “bayronizm” fenomeni bilan bog‘liq bo‘lgan isyonkor ruh, o‘zbek adabiyoti tarixida Abdulhamid Cho‘lpon ijodida o‘zining yuksak badiiy in‘ikosini topdi.

Lord Bayronning “Chayld Haroldning ziyorati” asaridagi qahramon individual erkinlik va metafizik sog‘inch tashuvchisi bo‘lsa, Cho‘lpon she‘riyatidagi lirik qahramon milliy ozodlik va erk g‘oyasining mutlaq fidoyisidir. Komparativist olim V.Jirmunskiy qayd etganidek: *“Bayroncha qahramon — bu jamiyatdan ajralgan, ammo uning barcha ziddiyatlarini o‘zida mujassam etgan kuchli individualistdir”* (Жирмунский, 1979,78). Cho‘lpon ijodida esa bu individualizm millatning kollektiv orzusi — hurlikka transformatsiya bo‘lib, romantik qahramon shaxsiy dardi orqali butun bir xalqning ozodlik strategiyasini ifodalaydi.

G‘arb va Sharq romantizmi kontekstida sayohat janri ijodkorning dunyo bilan muloqotga kirishish nuqtasi bo‘lib, unda lirik qahramonning subyektiv “men”i obyektiv ijtimoiy reallik bilan to‘qnashadi va uni qayta idrok etadi.

Bayron she‘riyatida his-tuyg‘ular qadrlanadi, chunki ular o‘z mohiyatiga ko‘ra yuqori bo‘lgan insoniy fazilatdir. Romantiklar ta‘riflaganidek, mening hissiyotlarim – mening o‘zim qabilida ish tutiladi. Insonning “men”i tugallanmas tuyg‘u, shuning uchun she‘rning ohangi romantic she‘riyatda juda muhimdir. Ohang jihatidan satrlar qofiyalashgan, ichki ma‘noga mos. Misralar bizni cheksizlikka olib boradi. Vidolashuv she‘rlari Bayron tomonidan qisqa satrlarda yozilgan, bu tinglovchi uchun juda ta‘sirli eshitiladi. Masalan, uning “Vido” (Fare thee well) she‘ri ham turmush o‘rtog‘i bilan ajrashgan damlarida yozilgan.

Fare thee well! and if for ever,
 Still for ever, fare thee well:
 Even though unforgiving, never
 'Gainst thee shall my heart rebel (Byron G.G., 1982,
 464).

Ushbu misralar Hamid Olimjon tarjimasida o‘zbek tilida
 quyidagicha jaranglaydi:

Alvido yor! Agar shu balo
 Qismatda bor bo‘lsa — alvido!
 Sen berahm bo‘lsang ham ammo,

Men dushmanlik qilmasman — vido! (Байрон Ж.Г., 1983,184)

An‘anaviy ishq mavzusi va uning romantik interpretatsiyasi Abdulhamid Cho‘lpon she‘riyatida ham markaziy o‘rin egallaydi. Cho‘lpon musulmon Sharqi xalqlari adabiyotining yetakchi mavzusi bo‘lgan ishq tushunchasini yangi davr ijtimoiy ideallari bilan boyitdi. Shoirning eng mashhur asarlaridan biri hisoblangan “Go‘zal” she‘rida ayol nafosati baland pafoslarda kuylanadi, biroq bu go‘zallik zamirida romantik ramziylik yotadi:

Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,
 Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen.
 Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
 Aytadir: men uni tushda ko‘ramen (Чўлпон., 2016, 31).

Cho‘lpon she‘riyatidagi romantik pafos uning “Sirlardan bir sirdir” she‘rida o‘zining cho‘qqisiga chiqadi. Shoir bu yerda ishq va sadoqat tushunchalarini ijtimoiy-siyosiy mohiyat bilan boyitadi. Lirik qahramonning: “Мен суйган “суюкли” шунчалар гўзал, / Ойдан-да гўзалдир, кундан-да гўзал!” degan xitobi zamirida romantizmga xos bo‘lgan mutlaq idealga intilish yotadi. Bu o‘rinda “suyukli” obrazi — mustamlaka kishanidan xalos bo‘lgan Erk va Vatan timsoli sifatida gavdalanadi. Shoir o‘z boshini “zo‘r ishga” — ya‘ni millat ozodligi yo‘lidagi kurashga tikkanini e‘tirof etar ekan, uning dardi Bayroncha individualizmdan ko‘ra kengroq, umummilliy ko‘lam kasb etadi (Дмитриев А.С., 1980,75).

Lord Bayron va Abdulhamid Cho‘lpon she‘riyatidagi romantik pafos insoniy kechinmalarni borliqning metafizik asoslari bilan bog‘lovchi estetik ko‘prik vazifasini o‘taydi. Bayron ijodida shaxsiy iztirob va "vido" motivi individual isyon darajasiga ko‘tarilib, qahramonning dunyo bilan ziddiyatini fojiaviy ko‘lamda ifodalasa, Cho‘lpon lirikasida bu an‘ana milliy ozodlik va ijtimoiy uyg‘onish g‘oyalari bilan boyitiladi. Har ikki shoir uchun ham ishq va hurlik tushunchalari ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi, bu esa ularning asarlarida ideallik va voqelik o‘rtasidagi keskin kurashning badiiy in‘ikosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, Bayronning “vido” ohangidagi poetik kashfiyotlari va Cho‘lponning ramziy-majoziy dunyosi romantizmning universal tabiatini ko‘rsatib beradi. Shoirlar tomonidan qo‘llanilgan “men” markazlashuvi va hissiy jo‘shqinlik nafaqat shaxsiy tuyg‘ularni ifodalash, balki insoniyatning erkinlik va nafosatga bo‘lgan o‘tmas ehtiyojini tarannum etishga xizmat qiladi. Binobarin, Bayron va Cho‘lpon ijodidagi tipologik yaqinlik G‘arb va Sharq romantizmining insonparvarlik tamoyillarida birlashuvini hamda badiiy tafakkurning chegarasiz ekanligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Bayron va Cho‘lpon ijodidagi isyonkor erksevarlik motivlarining mantiqiy davomi sifatida, romantik dunyoqarashning yanada yuqori nuqtasi — ruhiy jo‘shqinlik va lirik pafos hodisasi yuzaga chiqadi. Agar Bayron va Cho‘lponda qahramon ko‘proq ijtimoiy-siyosiy kishanlarga qarshi isyon ko‘targan bo‘lsa, Persi Bishi Shelli va Usmon Nosir she‘riyatida bu isyon koinot miqyosidagi energetik portlash va hayotga cheksiz tashnalik darajasiga ko‘tariladi.

Heynrix Heyne va Muqimiy ijodida “yo‘l” motivi an‘anaviy romantik qoliplardan chiqib, ijtimoiy-falsafiy mushohada quroliga aylangan bo‘lsa, Bayron va Cho‘lponda bu jarayon mutlaq isyon va erksevarlik konsepsiyasiga transformatsiya bo‘ladi. Geyne o‘zining “romantik ironiyasi” orqali jamiyatning “sovuq” haqiqatlarini fosh etsa, Muqimiy “felyetonistik aniqlik” bilan xalqning og‘ir ijtimoiy ahvolini romantik pafos uyg‘unligida ko‘rsatib beradi; bu har ikki ijodkor uchun ham shaharning bo‘g‘iq muhitidan dinamik erkinlik sari harakatdir. Ushbu individual erkinlik qidirishi Bayron ijodida jamiyatdan ajralgan kuchli individualist isyoni sifatida namoyon bo‘lsa, Cho‘lpon she‘riyatida bu tuyg‘u shaxsiy dard doirasidan chiqib, millatning kollektiv ozodlik strategiyasiga va hurlik uchun kurashuvchi fidoyilik timsoliga aylanadi.

XULOSA

G‘arb va Sharq romantizmining qiyosiy-tipologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, garchi adabiy jarayonlar turli geografik va madaniy muhitda kechgan bo‘lsa-da, ulardagi inson konsepsiyasi va erksevarlik g‘oyalari mushtarak poetik qonuniyatlarga ega. J.Bayron va H.Heyne ijodidagi isyonkorlik, Muqimiy va Cho‘lpon asarlaridagi milliy uyg‘onish motivlari bilan lirik pafos nuqtayi nazaridan tutashadi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, sayohatnoma janri romantiklar uchun shunchaki makon almashinuvi emas, balki lirik qahramonning ichki dunyosini kashf etish va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi ruhiy isyon vositasidir. Surgunlik, ijtimoiy tushunmovchilik va ozodlikka intilish kabi omillar asarlarda dramatik muhitni yuzaga keltirib, badiiy makonning lirik qahramon dunyoqarashini ochib berishdagi xizmatini asoslaydi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Sharq va G‘arb romantizmi

oʻrtasidagi tipologik yaqinliklar insoniyatning umumiy maʼnaviy intilishlari va erkin shaxs yaratish idealining badiiy inʼikosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Гейне, Г. Собрание сочинений: в 10 т. Т. 4. – Л.: Государственное издательство художественной литературы, 1957. – 384 с.
2. Гюго, В. Собрание сочинений: в 15 т. Т. 2. – М.: Гослитиздат, 1953. – 640 с.
3. Байрон, Ж. Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983. – 384 б.
4. Дмитриев, А. С. Литературные манифесты западноевропейских романтиков. – М.: Изд-во МГУ, 1980. – 635 с.
5. Дмитриев, А. С. Генрих Гейне. – М.: Наука, 1982. – 208 с.
6. Ёқубов, Ҳ. Муқимий: ҳаёти ва ижоди. – Тошкент: Фан, 1970. – 176 б.
7. Жирмунский, В. М. Сравнительное литературоведение. – Л.: Наука, 1979. – 496 с.
8. Кольридж, С. Т. Избранные труды. – М.: Искусство, 1987. – 352 с.
9. Комилов, Н. Тасаввуф. – Тошкент: Moʻtadilnashr, 2009. – 448 б.
10. Назаров, Б. Чўлпон ва жаҳон адабиёти. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 192 б.
11. Чўлпон. Асарлар: 4 жилдлик. Ж. 1. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 400 б.
12. Шлегель, Ф. Эстетика. Философия. Критика: в 2 т. Т. 1. – М.: Искусство, 1983. – 479 с.
13. Byron, G. G. The Complete Works of Lord Byron, Including His Suppressed Poems and Others Never Before Published. Vol. IV. – Paris: Baudry's Foreign Library, 1882. – 542 p.
14. Karimov, G'. Muqimiy. Asarlar. – Toshkent: Fan, 1974. – 427 b.
15. Muqimiy, M. A. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. J. 1 / mas'ul muharrir H. Yoqubov. – Toshkent: Fan, 1959. – 312 b.
16. Prose: Literary Terms and Concepts / ed. by K. Kuiper. – New York: Britannica Educational Publishing, 2012. – 217 p.
17. Umarova, M. Author and Hero's Parallelism in English and Uzbek Literature // Philology Matters. – 2021. – № 2. – P. 21–34.
18. Yoqubov, H. Muqimiy hayoti va ijodi. – Toshkent: OʻzSSR FA nashriyoti, 1953. – 188 b.
19. Sayohatnoma // Wikisource. – URL: <https://wikisource.org/wiki/Sayohatnoma>
20. (murojaat qilingan sana: 19.04.2026).

REFERENCE

1. Heinrich Heine. (1957). Collection of Works in Ten Volumes. Volume 4. State Publishing House of Fiction: Leningrad, 3.
2. Hugo V. (1953). Collected Works in 15 Volumes. M.: State Publishing House.
3. Byron J.G. (1983). Selected Works. Tashkent: Yosh gvardiya.
4. Dmitriev A.S. (1980). Literary Manifestos of Western European Romantics. M.: Moscow State University Publishing House, 635p.
5. Dmitriev A.S. (1982). Heinrich Heine. Moscow: Nauka, P. 42.
 1. 6.Yakubov H. (1970). Muqimiy: life and work. T.: Fan, P. 115.
6. Zhirmunsky V.M. (1979). Comparative Literary Studies. L.: Science, P. 54.
7. Coleridge S.T. (1987). Selected Works. M.: Art.
8. Komilov N. (2009). Sufism. T.: Movarounnahr, P. 112.
9. Nazarov B. (2012). Cholpon and World Literature. T.: Akademnashr, P. 56.
10. Ten-volume collected works. (1957). Volume 4. State Publishing House of Fiction. Leningrad, 3.
11. Cholpon. (2016). Works. 4 volumes. J.I. T.: Akademnashr, P. 31.
12. Schlegel F. (1983). Aesthetics. Philosophy. Criticism. In 2 vols. M.: Art.
13. Byron G.G. (1982). The Complete Works of Lord Byron, including his suppressed poems, and others never published before. Vol. IV. Paris: Baudry's Foreign Library.
14. Karimov G. (1974). Muqimiy. Works. Tashkent, 427-b.
15. Muqimiy, M.A. (1959). Tanlangan asarlar. Two-volume. J. 1. / Mas'ul muharrir: H. Yoqubov. Tashkent: Fan, P. 84.
16. Prose: Literary Terms and Concepts / edited by Kathleen Kuiper. (2012). 1st ed. New York: Britannica Educational Publishing, 192 p. P. 217.
17. The complete works of Lord Byron, including his suppressed poems, and others have never been published before. (1882). Vol. IV, Baudry's foreign library, P. 207.
18. Umarova M. (202). Author and hero parallelism in English and Uzbek literature // Philology Matters. P. 21-34.
19. Yoqubov H. (1953). Muqimiy hayoti va ijodi. Tashkent: Academy of Sciences of the Uzbek SSR Publishing House, 188 p.
20. <https://wikisource.org/wiki/Sayohatnoma>